



INTERETHNIC RELATIONS AND THE ROLE OF DIASPORAS IN CENTRAL ASIA

Bakhadir N. Isakov,

Candidate of Historical Sciences, docent

Uzbekistan State World Languages University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639897>

ARTICLE INFO

Received: 10th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 18th November 2025

KEYWORDS

*ethnopolitical processes,
interethnic relations,
multinational society, diaspora,
irredenta, globalization, ethnic
identity.*

ABSTRACT

This article analyzes ethnopolitical processes and interethnic relations in a contemporary multinational society that emerged as a result of the global sociopolitical changes of the late 20th and early 21st centuries. Particular attention is paid to interstate relations and ethnic diasporas as a sociocultural phenomenon. The article examines various approaches to the concept of "diaspora" in the context of globalization and demonstrates the distinction between the concepts of "diaspora" and "irredenta" in Central Asia.

МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И РОЛЬ ДИАСПОР В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Бахадир Нигматуллаевич Исаков,

кандидат исторических наук, доцент

Узбекский государственный университет мировых языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639897>

ARTICLE INFO

Received: 10th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 18th November 2025

KEYWORDS

*этнополитические процессы,
межэтнические отношения,
многонациональное
общество, диаспора,
ирредента, глобализация,
этническая идентичность.*

ABSTRACT

В данной статье анализируются этнополитические процессы и межэтнические отношения в современном многонациональном обществе, возникшем в результате глобальных социально-политических изменений конца XX – начала XXI веков. Особое внимание уделяется вопросам межгосударственных отношений и этнических диаспор как социокультурного феномена. В статье рассматриваются различные подходы к понятию «диаспора» в контексте глобализации и показано различие понятий «диаспора» и «ирредента» в Центральной Азии.

MARKAZIY OSIYODAGI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA DIASPORALARNING ROLI

Bahodir Nigmatullayevich Isakov,

tarix fanlari nomzodi, dotsent



ARTICLE INFO

Received: 10th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 18th November 2025

KEYWORDS

etnosiyosiy jarayonlar, millatlararo munosabatlar, ko'p millatli jamiyat, diaspora, irredenta, globallashuv, etnik o'ziga xoslik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi global ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan zamonaviy ko'p millatli jamiyatdagi etnosiyosiy jarayonlar va millatlararo munosabatlar tahlil qilinadi. Davlatlararo munosabatlar va sotsio-madaniy hodisa sifatida etnik diasporalar muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada globallashuv sharoitida "diaspora" tushunchasiga bo'lgan turli yondashuvlar ko'rib chiqiladi hamda Markaziy Osiyoda "diaspora" va "irredenta" tushunchalari o'rtasidagi farq ko'rsatib o'tiladi.

1. Dolzarbligi:

Hozirgi globallashuv jarayonida ko'p millatli jamiyatlar, millatlararo munosabatlar va etnik jarayonlarni ilmiy tadqiq qilish ijtimoiy fanlarning oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonlar, ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, xususan, jahon miqyosidagi kuchlar muvozanatidagi global o'zgarishlar, Sovet Ittifoqining parchalanishi, dunyoning barcha mintaqalarida milliy o'zlikning keskin o'sishi va ayrim millatlararo nizolarning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamjihatlikni rivojlantirish masalasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Tariximiz mushtarakligi va o'zaro yaqinligimiz hozirgi dunyoning murakkab muammolarini birgalikda hal etish, biz uchun umumiy tahdidlarga qarshi samarali kurashish, yangi avlodlar uchun kelajakni birgalikda qurishda yordam bermoqda. Biz – qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar va o'zbeklar, go'zal Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillari birgalikda tinch-totuv, do'st-inoq bo'lib yashashimiz taqdirning o'zi tomonidan belgilab berilgandir. Shuning uchun ham biz umumiy uyimizni, farzandlarimizni turli nizo va qarama-qarshiliklardan himoya qilish, mintaqamizda tinchlik va farovonlik hukm surishini ta'minlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur"[1], – deb ta'kidlagan edi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda umume'tirof etilgan ilmiy usullar – tarixshunoslik, qiyosiy tarixiy va mantiqiy tahlillar, izchillik va xolislik tamoyillaridan foydalanilgan. Jahon miqyosida diasporalar tarixi bilan bog'liq masalalar 1970-yillarning oxiridan boshlab tadqiqotchilarning diqqatini jalb qila boshlagan bo'lsa, Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlar, shu jumladan, O'zbekistonda diasporalar masalasiga bo'lgan qiziqish 1990-yillarning o'rtalarida paydo bo'ldi. Albatta, bu sohadagi tadqiqotlar millatlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash va puxta



o'ylangan milliy siyosatni amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy siyosat va millatlararo munosabatlar, diasporalar tarixi, ularning etnogenezi, hududiy joylashuvi masalalariga bag'ishlangan bir qator mufassal ishlar amalga oshirildi. So'nggi yillarda etnik diasporalar tarixiga qiziqish ancha ortgan bo'lib, bu masalaga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

3. Tadqiqot natijalari:

Etnik jarayonlar, millatlararo va davlatlararo munosabatlar tizimi, Sovet Ittifoqidek ko'p millatli imperiyaning parchalanishi etnik diasporalar kabi ijtimoiy-madaniy hodisaning shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Globallashuvning mazmun-mohiyatidan kelib-chiqib, polietnik makon, migrantlar jamoasi va diaspora tushunchalarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lib qoldi. Mutaxassislar tomonidan hozirgi kunga qadar diasporalar tarixi bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramasdan "diaspora" terminiga turlicha izoh berib kelinadi. Buning sababi, ehtimol, diaspora masalasi tarix, sotsiologiya, etnologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi turli fanlarning o'rganish obyekti ekanligi va turli xil yondashuvlarning muqarrarligi bilan ifodalanadi.

So'nggi davrlarda ijtimoiy fanlar sohasida millatlararo munosabatlar masalalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borishi, shuningdek, ko'p hollarda aynan "diaspora" terminining keng qo'llanilishi mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritish zaruratini tug'dirmoqda. Ta'kidlash joizki, ushbu atamaning mazmuni haqida ilmiy jamoatchilik o'rtasida davom etayotgan muhokamalar ijtimoiy fanlar sohasida hozirgi kunga qadar ham diaspora terminini ta'riflashda aniq bir to'xtam mavjud emasligini ko'rsatadi. Xususan, diaspora masalalari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi A.Militarev ta'kidlaganidek, "zamonaviy tadqiqotchi va izlanuvchilar turli jarayonlarga nisbatan bu atamani erkin qo'llash va unga turli mazmun berish holatlari keng tarqalgan"[2]. Shu bilan birga, diaspora tushunchasining turli xil talqinlari mavjudligini inkor qilmagan holda mazkur atamani sharhlashning quyidagi ikki yo'nalishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, bir guruh mutaxassislar bu atamani qadimgi xalqlarning tarqalishini tavsiflovchi tushuncha sifatida baholaydilar. Jumladan, T.Yudinaning ta'kidlashicha, "diaspora tushunchasi qadimdan ma'lum bo'lib, ko'chirilgan xalqlar yoki turli tazyiqlar ta'siri ostida dunyo bo'ylab tarqalib ketgan xalqlar (yahudiylar va afrikalik qullar), savdo guruhlari (G'arbiy Osiyo va Afrikadagi yunonlar, Janubi-Sharqiy Osiyoga islom dinini olib kelgan arab savdogarlari)ga nisbatan qo'llanilgan"[3].

Ikkinchi nuqtai-nazar tarafdorlari bo'lgan V.Dyatlov[4], T.Poloskova[5], V.Popkov[6], N.Van Xer[7] va D.Armstrong[8] kabi tadqiqotchilar migratsiya jarayonlarini tadqiq qilish, immigrantlar tashkil etgan transmilliy hamjamiyatlarning har xil turlari va shakllarini yangi yondashuvlar asosida o'rganish asnosida diaspora tushunchasining an'anaviy talqinini qisman rad etadilar va "yangi" yoki "zamonaviy" diaspora tushunchasini qo'llaydilar. Aslida "diaspora" atamasi etnik kamchiliklar, qochqinlar, migrantlar kabi turli



xil guruhlar uchun ishlatilib, biron bir sababga ko'ra o'z mamlakatidan tashqarida yashovchi har qanday guruhni anglatadi.

Yu.Polyakov "diaspora" tushunchasining ikkita asosiy: 1) begona muhitda joylashgan etnik jamoa; 2) ma'lum bir mamlakatning etnik va madaniy jihatdan boshqa davlatga mansub aholisi[9] degan talqinni keltiradi. Shuningdek, u davlat chegaralarining o'zgarishi va boshqa tarixiy holatlar tufayli o'z etnik vatanlaridan ajralib qolgan tubjoy aholi diasporalarining mavjudligini ta'kidlab, bu o'rinda, "diaspora" emas, balki "irredenta" atamasini qo'llash maqsadga muvofiqligiga e'tibor qaratadi.

Qozog'istonlik tadqiqotchi G.Mendikulova bu haqida: "Zamonaviy siyosatshunoslikda "irredenta" atamasi o'z milliy hududiy birlashmasi chegaralaridan tashqarida yashovchi etnik kamchiliklarni anglatadi"[10], – deydi. Bu yondashuvga binoan, Markaziy Osiyo diasporalari asosan "irredenta" hisoblanadi, chunki ular tarixiy jihatdan "o'z" yerlarida istiqomat qiladilar. Markaziy Osiyoning ko'p qismida etnik guruhlar aralash joylashgan bo'lib, ayrim mintaqalarda an'anaviy ravishda ikki, uch yoki undan ortiq etnik guruhlar yashaydi. Xususan, o'zbek-qozoq millatlari an'anaviy yashaydigan hududlarga Janubiy Qozog'iston (Turkiston, Qizilo'rda va Taraz viloyatlari), Shimoliy va Markaziy O'zbekiston (Toshkent, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari) kirgani holda Farg'ona vodiysida (O'zbekistondagi uchta viloyat, Qirg'izistondagi uchta viloyat va Tojikistonning So'g'd viloyati) an'anaviy ravishda o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar va boshqalar istiqomat qiladi.

V.Tishkov tomonidan ilgari surilgan "diaspora konsepsiyasi" ilmiy hamjamiyatda juda keng munozaralarga sabab bo'lgan. U ko'plab tadqiqotchilardan farqli ravishda "diaspora"ni siyosiy hodisa sifatida baholab, asosiy e'tiborni "vatan" yoki "tarixiy vatan" tushunchalariga qaratadi. Uning ta'kidlashicha, "diaspora" tushunchasiga berilgan an'anaviy ta'rif sifatida qabul qilingan talqin ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bermaydi va bir qator jiddiy kamchiliklarga ega. Xususan, birinchi va eng muhim kamchilik "diaspora" tushunchasining juda keng talqin qilinishi bo'lib, immigrantlar jamoalarining barcha shakllarini qamrab oladi hamda immigrantlar, ekspatriantlar[11], qochqinlar, gastarbayerlar[12] jamoalari o'rtasidagi farqni inobatga olmaydi. Uning ta'kidlashicha, bunday ta'rifdan kelib chiqilsa, unda har bir davlat aholisining katta qismi diaspora toifasiga kirib qoladi[13].

T.Poloskovaning fikriga ko'ra, "Diaspora tushunchasi ta'rifini: 1) etnik o'ziga xoslik; 2) umumiy madaniy qadriyatlar; 3) etnik va madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilish; 4) umumiy tarixiy kelib chiqish g'oyasi kabi xususiyatlarni aniqlashdan boshlash kerak. Diasporalarning siyosiy institutlar tizimidagi o'rnini belgilaydigan siyosiy tahlil nuqtai nazaridan, diasporalar nafaqat o'zlarini boshqa davlatda yashovchi xalqning bir qismi sifatida tan olishlari, balki ularning yashash joyi va tarixiy vatani bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun o'z strategiyasiga ega bo'lishlari muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, diaspora, etnik guruhdan farqli o'laroq, nafaqat etnik-madaniy, balki etnosiyosiy mazmunga ham ega"[14].

Markaziy Osiyo davlatlarida diasporalarning roli va ahamiyatini inobatga olgan holda tegishli muvofiqlashtiruvchi organlar tashkil etilgan. Jumladan, Qozog'istonda Qozog'iston xalqi assambleyasi, Qirg'izistonda Qirg'iziston xalqlari assambleyasi va



O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita faoliyat yuritmoqda.

4. Xulosalar:

Etnosiyosiy jarayonlar va millatlararo munosabatlarni, ayniqsa, etnik diasporalar nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb va murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Global o'zgarishlar "diaspora" tushunchasini tanqidiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ilmiy izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, "diaspora" (asosan, migratsiya natijasida shakllangan jamoa sifatida) va "irredenta" (chegara o'zgarishi natijasida asosiy etnik guruh chegaralaridan tashqarida bo'lgan etnik kamchilik sifatida) o'rtasidagi farqni aniqlashni talab qiladi, bu esa Markaziy Osiyodagi vaziyatni tushunish uchun ayniqsa muhim bo'lib, zamonaviy dunyoda diaspora nafaqat etnik-madaniy, balki institutsionallashgan etnosiyosiy xarakterga ham ega. Umuman olganda, diasporalarning tabiati, vazifalari va ta'sirini tushunish millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish va ko'p millatli jamiyatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhim

Iqtiboslar/Сноски/References:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qozog'istonda O'zbekiston yili ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-q-16-03-2018>
- [2] Милитарев А.Ю. О содержании термина "diaspora" (к разработке дефиниции) // Диаспоры. 1999. №1. С.24-26.
- [3] Юдина Т.Н. Социология миграции: к формированию нового научного направления. М, 2004. С.9.
- [4] Дятлов В.И. Диаспора: попытка определиться в понятиях // Диаспоры. 1999. № 1. С.21.
- [5] Qarang: Полоскова Т.В. Диаспоры в системе международных связей: автореф. дис. ...докт. полит. наук. М., 2000. С.15; Полоскова Т.В. Современные диаспоры: Внутриполитические и международные аспекты. М., 2002.
- [6] Попков В.Д. Диаспорные общины в межкультурном взаимодействии: пути формирования и тенденции развития. автореф. дис. ...докт. соц. наук. М., 2003. С.15.
- [7] Qarang: Van Hear N. New Diasporas. The Mass Exodus, Dispersal and Regrouping of Migrant Communities. L., 1998.
- [8] Qarang: Armstrong D. Mobilized and Proletarian Diasporas // The American Political Science Review. 1976. Vol.70. N.2.
- [9] Национальные диаспоры в России и за рубежом в XIX-XX вв. Сб. ст. Под ред. Полякова Ю.А. и Тарле Г.Я. – М.: ИРИ РАН, 2001. С.4.
- [10] Мендикулова Г.М. Казахская диаспора и ирредента: история и современность. <https://kitaphana.kz/refrus/156-kazakhstan/1841-kazahskaay-duaspora.html>
- [11] Ekspatriant (lotincha "ex" – "dan" + "patria" – "vatan") – odatda fuqarolikdan mahrum qilingan holda mamlakatdan vaqtincha yoki doimiy ravishda chiqarib yuborilgan, shuningdek, fuqarolik huquqi tugatilgan shaxs.



[12] Gastarbayer (nemischa “gast” – “mehmon” + “arbeiter” – “ishchi”) – “chaqirilgan ishchi” – vaqtinchalik ish bilan band bo’lgan chet ellik yoki boshqa davlat rezidentini bildiruvchi termin.

[13] Тишков В.А. Реквием по этносу: Исследования по социально-культурной антропологии. – М., 2003. – С.435.

[14] Полоскова Т. Современные диаспоры: внутривполитические и международные проблемы. М., 2000. С.18.